

NASRIY RENESSANSNING YORQIN YUZI

Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi

O'zbekiston xalqaro islom

akademiyasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Arab adabiyoti o'ziga xos bo'lib, turli janrlarga boy hisoblanadi. Rosail janri arab adabiyotining muhim kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Ushbu janrga Abdulhamid Al-Katibiy asos solgan bo'lib, u o'z davrining taniqli va beqiyos kotiblaridan edi. Rosail janri hozirgi zamnda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, qadimda davlatlararo munosabat va hamkorliklarni yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynagan.

Kalit so'zlar: risola, janr, arab adabiyoti, kotib, Abdulhamid Al-Katibiy, nasr, renessans, Marvon II.

Arab adabiyoti asrlar davomida sayqallanib, bir necha adabiy janrlar paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Shunday muhim kashfiyotlardan biri bu rosail janridir. Rosail arabcha "risola" so'zining ko'plik shaklidir va o'zbek tilida ham ko'pincha shu ko'plik shaklida ishlatiladi. Ushbu janrda yozilgan asarlar odatda kichik hajmdagi ilmiy, diniy, falsafiy yoki axloqiy mavzularda yozilgan asarlar bo'lib, o'z davri uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Nega deganda, davlatlararo yozishmalar, ma'lum mavzudagi murojaatnomalar davlat osoyishtaligi va tinchligi hamda ikki tomon o'rtasida aloqalar o'rnatish yo'lida muhim rol o'ynagan.

Rosail janriga 7-8-asrlarda yashab o'tgan arab yozuvchisi va kotibi Abdulhamid al-Katibiy asos solgan. Uning to'liq ismi Abdulhamid ibn Yahyo al-Katib bo'lib, bu paytda Umaviylar davlati rahbari xalifa Marvon II ga xizmat qilar edi. Marvon II Katibiyni xalifa bo'lishidan avvalroq uchratgan edi va uning ilmidan hayratda qolib uni o'z kotibi etib tayinlagan edi, xalifalikni qo'lga kiritgandan so'ng esa uni davlat kotibi etib tayinladi.

Manbalarda uning bolalik hayoti haqida ko'p gapirilmagan, lekin uning yoshligidan tirishqoq va qobiliyatli bo'lgani ma'lum. Uning ustozlaridan biri Solim Mavlo Hishom bo'lib, yozuvchi undan "Devoniya" yozuvi tamoyillarini o'rganadi. Bundan tashqari Al-Katibiyda o'ziga xos notiqlik mahorati ham shakllangan edi. U arab tilida yozma uslubni rivojlantirib, qat'iy qoidalarni joriy qilishda muhim rol o'ynagan. O'rta asr arab she'riyatining birinchi nazariyotchisi ham aynan Abdulhamid Al-Katibiy hisoblanadi.

Al-Katibiy professional kotib bo'lib, risolalar yozish va davlat hujjatlarini yuritishda o'zining maxsus uslubiga ega edi. Uning uslubi aniq va ravon bo'lib, har bir so'zni noziklik bilan ishlata edi. Risolalarida obrazli tuzilish, istiora va majozdan unumli foydalangan. Yozuvchi yashab o'tgan davrda uni "Abdulhamid bilan xatlar ochildi va yakunlandi" deya e'tirof etishgan. Ko'rinib turibdiki, u yozgan risolalar beqiyos va ta'sirli jihatlari hamda bir jimlada ko'plab nodir ma'nolar anglatishi bilan boshqalardan ajralib turgan.

Al-Katibiy faoliyati davomida mazkur janrda bir qancha mashxur asarlar yaratgan bo'lib, ular hozirgacha ko'plab tillarga tarjima qilinib o'rganib kelinmoqda. "Kotiblar uchun o'gitlar", "Marvon II ning o'g'liga xat", "Oilamga xat", "Qurolli kuchlarni tashkil etish va harbiy taktika bo'yicha noma" kabilar shular jumlasidandir.

U kotiblik san'ati asoslarini yaratib, kotiblik mahorati borasida qoidalar ishlab chiqqan birinchi shaxslardan hisoblangan. Shuningdek, saroy hujjatlari va diplomatik yozishmalarga oid ishlarni ustalik bilan amalga oshirgan. U nasrda aniq va ifodali yo'nalishni targ'ib qilgan. Bir so'z bilan aytganda, Abdulhamid Al-Katibiyni nasriy renessansning yorqin yuzi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Yangi davr arab adabiyoti. Qo'llanma. Akbarova M. X. – Toshkent: 2009 yil
2. Mumtoz arab adabiyoti. M. Ziyavuddinova. – TDSHI. Toshkent: 2009 yil
3. <https://search.app/e8gcYwbzmiU3Ft1B8>